

Narzullayeva Shahlo Salaydinovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti

Adabiyotshunoslik (dariy) guruhi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: F.f.d., prof. A.M.Mannonov

Annotatsiya. *Afg'onshunoslik dunyo ilm-fanida kam o'rganilgan sohalardan biri. Aynan shu sohada faoliyat olib borayotgan, o'zbek afg'onshunosligida o'z o'rniga ega olima Alimova Xolida va uning ilmiy faoliyati haqidagi fikrlar bayoni mazkur maqolada keltirilgan. Bu ma'lumotlar barcha afg'onshunoslar uchun ibrat bo'la oladi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lif, ilm, dariy tili, fors tili, maqola, avtoreferat, taqriz, dissertatsiya, monografiya, professor.*

Annotation. *Afghan studies is one of the least studied fields in world science. In this article, the scholar Alimova Kholida, who works in this field and has her place in Uzbek Afghan studies, and her scientific activities are presented in this article. This information can be a lesson for all Afghan scholars.*

Keywords: *Education, science, Dari language, Persian language, article, abstract, review, dissertation, monograph, professor.*

Barchamizga ma'lum, necha asrlardirki, ta'lif va tarbiya biz insonlar hayotining ajralmas bir qismi hisoblanadi. O'z navbatida biz ta'lif va tarbiyani albatta ustozdan olamiz. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, xalqimizning "ustoz otangdan ulug'" degan maqoli ham aslo beziz aytilmagan. Bugungi kunda jamiyat hayoti va taraqqiyotining omili yoshlarning ma'naviy ta'lif tarbiyasida ustozlarning – olimalarining ishtiroki katta ahamiyatga egadir. Buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat: "Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim"²², deb yozgan edi.

Ayol barcha jabhalarning guli, tamal toshi. Ayniqsa ayol ilmli, ta'limi yetuk bo'lsa jamiyat hayoti ham ilmli va salohiyatli shaxslarga to'la bo'ladi. Mana shunday ilm yo'lida o'z hayotini bag'ishlagan olma ayol maqolamiz obyekti hisoblanadi. Afg'onshunoslikdagi yagona fan doktori, professor Alimova Xolida Zikrillayevna bugungi kunga qadar tilshunoslik ilmini keng qamrovli darajada tolibi ilmlarga yetkazish bilan birga fanga ilmiy yangiliklar kiritishni ham uddalamoqda.

Sharqshunos olma, filologiya fanlari doktori, professor Alimova Xolida Zikrillayevna o'z ish faoliyatini 1988-yildan Toshkent davlat universitetining (hozirgi O'zMU) sharq fakulteti afg'on filologiyasi kafedrasida boshlagan.

²² Axmedov Q.A., Sodiqova A.J., Jamiyatda xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faolligi//XXI asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari – T., 2023 – B.184.

Alimova Xolida ilmiy faoliyati davomida dariy va fors tilshunosligi tugun va yechimlari bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. U eron-afg'on filologiyasining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy maqola va o'quv adabiyotlari muallifidir. Qadrli ustozimiz universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-nazariy va amaliy anjumanlarda ham faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Alimova Xolida Zikrillayevna dariy tili, fors va dariy tillari nazariy grammatikasi, dariy (fors) va o'zbek (rus) tillari chog'ishtirma grammatikasi, Afg'onistonda til vaziyati va siyosati bo'yicha universitetdagi yetakchi mutaxassislaridandir. U 80 dan ortiq ilmiy, o'quv-uslubiy ishlar e'lon qilgan, shulardan 1 ta monografiya, 5 ta darslik, 7 ta o'quv qo'llanma, 70 ga yaqin ilmiy maqola chop etgan. X. Alimova tomonidan tayyorlangan darslik va o'quv qo'llanmalar Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Muvofiglashtiruvchi kengashining grifini olgan. Hozirda bu o'quv adabiyotlari chop etilib, xorijiy va sharq filologiyasi yo'nalishida o'quv jarayoniga tatbiq etilgan. Shuningdek, uning ilmiy tadqiqotlari yuzasidan 30 dan ortiq ilmiy maqola mamlakatimiz va chet el ilmiy jurnallarida, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlarida nashr qilingan.

X.Z. Alimova 2005-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Ixtisoslashgan kengashda "Dariy tilida somatizmlarning struktur va semantik tasnifi" mavzusida 10.02.22 – Osiyo, Afrika xalqlari, Amerika va Avstraliya tub xalqlari tillari ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 2009-yilda dotsent unvonini olgan. 2019-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashda 10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi doirasida "Dariy tilida so'z yasalishining ichki lingvistik usullari" mavzusidagi filologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasini himoya qilgan. 2022-yilda unga professor unvonni berilgan.

X.Z. Alimova 34 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida "Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari)" ta'lif yo'nalishi bakalavr bosqichi talabalariga "Dariy tili", "Dariy tili leksikologiyasi", "Fors va dariy tillari nazariy grammatikasi", "Dariy (fors) va o'zbek (rus) tillari chog'ishtirma grammatikasi", "Eron tilshunosligi", "Mutaxassislikka kirish", "Qo'shma gap sintaksi", "Dariy tilida ish yuritish" fanlaridan, "Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)", "Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)" mutaxassisliklarida "Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili", "Mutaxassislikning nazariy masalalari", "O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati (Afg'oniston, Eron)", "Madaniyatlararo muloqot", "Ilmiy matn tahlili", "Анализ специальной литературы по специальности (дари)", "Лингвистическая терминология" kabi fanlardan dars berib kelmoqda. Professor X.Alimova ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminar-treninglarni olib borish jarayonida zamonaviy o'qitish usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda multimedia ta'lif resurslaridan samarali foydalanib, o'z shogird va talabalariga yuqori darajada dars berib kelmoqda.

X.Z. Alimova o‘zi faoliyat yuritayotgan kafedra o‘quv-uslubiy salohiyatini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalari borasidagi faoliyatini kuchaytirish yuzasidan yuqori natijalarga erishmoqda. U pedagog-olim sifatida kafedra tomonidan o‘qitiladigan sharq tillari va mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarini yaratish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Uning yakka mualliflikda va hammualliflikda tayyorlagan fan dasturlari, o‘quv-tarqatma materiallaridan TDSHU o‘quv jarayonida foydalanib kelinmoqda. Shuningdek, bir qator o‘quv adabiyotlariga mas’ul muharrirlik, o‘quv adabiyotlari va dasturlari, dissertatsiya, avtoreferat, bitiruv loyiha ishlari va ilmiy maqolalarga xulosa va taqrizlar bergan.

X.Z. Alimova rahbarligida 40 dan ortiq bakalavr, 10 dan ortiq magistr, shuningdek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi ishlari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Ayni vaqtida ham tayanch doktorantlar va magistrlik ishlariiga ilmiy rahbar.

Xususan, 2022-yilda X. Alimova rahbarligida X. Uktamova 10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisoslik shifri bo‘yicha “Dariy tili grammatik manbalarida fonetika va morfologiya masalalari” nomli dissertasiyasi²³ filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun himoya qildi.

X.Z. Alimova o‘zining kasbiy faoliyati bilan bir qatorda bir qancha Ilmiy Kengash va Ilmiy seminarlarda ham faoliyat olib bormoqda. U Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli Ilmiy kengash a’zosi va Kengash qoshidagi 10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti, 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosliklari bo‘yicha Ilmiy seminar raisi, Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSs.03.30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi Bir martalik kengash va ilmiy seminari a’zosi (rais o‘rinbosari)dir. X.Z. Alimova, shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida tuzilgan Bir martalik kengash va uning qoshidagi ilmiy seminarlarda a’zo sifatida ishtirok etib kelmoqda.

Shu bilan birgalikda, X.Z. Alimova – 2018-yil iyun oyidan Prezident tashabbusi bilan ta’sis etilgan “O‘zbekiston-Afg‘oniston” do‘stlik jamiyatining ijrochi direktoridir. Shu kunga qadar O‘zbekiston va Afg‘oniston xalqlari orasidagi madaniy-ma’rifiy, ta’lim-fan sohasidagi aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni tashkillashtirishda faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi, “O‘zbekiston-Afg‘oniston” do‘stlik jamiyatni tomonidan Afg‘oniston mustaqilligining 100 yilligiga bag‘ishlab va keyingi yillarda o‘tkazilgan turkum tadbirlarning (“Mahmud Tarziy – Afg‘oniston matbuoti va ma’rifatparvarlik

²³Uktamova X. Dariy tili grammatik manbalarida fonetika va morfologiya masalalari. – T.,2022.

adabiyoti asoschisi, yirik siyosiy va madaniyat arbobi”, O’zbekistonda yashayotgan Afg‘oniston vakillari bilan hamkorlikda “O’zbekiston-Afg‘oniston aloqalarida yangi bosqich” nomli davra suhbati, “Afg‘on mumtoz adabiyotining buyuk vakillari Xushholxon Xattak va Rahmon bobo ijodida tinchlik, vatanparvarlik va insonparvarlik masalalari” nomli ijodiy kecha va b.) tashkilotchisi hisoblanadi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash kerakki, “O’zbekiston-Afg‘oniston” do’stlik jamiyati Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi “Millatlararo totuvlik va barqarorlikni ta’minlashda ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish” mavzusidagi 5-tanlovda “O’zbekiston va Afg‘oniston o’rtasida madaniy-ilmiy, ta’limiy, gumanitar hamkorlikni kengaytirish va rag‘batlantirish masalalari” loyihasi bilan muvaffaqiyatli ishtirok etib, loyiha doirasida X.Z. Alimova faolligida ikki mamlakat o’rtasida qadimdan davom etib kelayotgan madaniy-adabiy aloqalarni “O’zbekiston-Afg‘oniston” do’stlik jamiyati orqali yanada jonlantirish va O’zbekiston xalq diplomatiyasini Afg‘oniston xalqlari bilan ta’lim, madaniyat, ilm-fan, san’at va turizm sohalari doirasida har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar amalgalashdi. Mazkur tadbirlar O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Afg‘oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4892 Qaroridagi Afg‘oniston bilan ta’lim sohasida hamkorlikni yanada kuchaytirish va takomillashtirish zarurati, ikki mamlakat ilm-fan va madaniyat arboblarining yubileyalarini nishonlash singari chora-tadbirlar mazmun-mohiyatini jamoatchilik orasida keng yoritishga xizmat qiladi.

X.Z. Alimova, shuningdek, universitet, fakultet, kafedra miqyosida o’tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. U TDSHU Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasи va O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti o’rtasidagi korporativ hamkorlik doirasida korporativ va innovatsion hamkorlikni samarali rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘sib kelmoqda. Jumladan, Respublika oliy ta’lim va oliy harbiy ta’lim muassasalari o’rtasida fors tilidan (umumkasbiy yo‘nalish) o’tkazilgan fan olimpiadalarida hay’at raisi (2017-2018), “Harbiy sohada maqsadga yo‘naltirilgan chet tillarni o‘qitishdagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari” (2018), “Oliy ta’lim muassasalarida til o‘qitish zamonaviy usullarining amaliy qo‘llanishi” (2021), “Chet tilini o‘qitishda va o‘rgatishda til ko‘nikmalarini rivojlantirishning dolzarb masalalari” (2022) kabi mavzulardagi bir qator respublika ilmiy-amaliy va ilmiy-uslubiy anjumanlarda, “Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari – tinchlik va osoyishtaligimiz garovi”, “Система образования в мире” mavzusidagi davra suhbatlarida faol qatnashgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, X.Z. Alimova ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, uni yangi bosqichga ko‘tarishda salmoqli hissa qo‘sishiga va ilmiy hayotda yuqori darajalarga erishishda doimo harakatda. Professor X.Z. Alimova yosh avlodni tarbiyalashda, ularga ilm ulashishda va jamiyatimiz ilm-fani taraqqiyoti rivojiga qo‘sheyotgan hissasi tahsinga sazovordir. U o‘zining samimiyligi, kamtarinligi,

7 – TOM 3 – SON / 2024 - YIL / 15 - MART

mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, professional sohasiga sadoqati va yurtiga bo‘lgan mehri bilan keng jamoatchilik orasida obro‘-e’tiborga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova X. Dariy tiida so‘z yasalishining ichki lingvistik usullari. – T., 2019.
2. Uktamova X. Dariy tili grammatik manbalarida fonetika va morfologiya masalalari. – T., 2022.
3. Axmedov Q., Sodiqova A., Jamiyatda xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faolligi // XXI asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari – T., 2023.